

**RANG TASVIR JARAYONIDA NATYURMORTNI ISHLASH
BOSQICHLARI**

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi

Sotvoldiyeva Marjona Javlon qizi

sotvoldievamarjona@icloud.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rang tasvir san'atining muhim turlaridan biri — natyurmort janri, uning turlari va o'zbek rassomlari ijodidagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, mashhur rassomlar Chingiz Ahmarov va Raxim Ahmedovning natyurmort yo'nalishidagi ijodiy izlanishlari, ularning san'atga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, natyurmort ishlashning uch asosiy bosqichi — kompozitsion tuzilish, rangli yechim va yakuniy detallash bosqichlari izchil tushuntirilgan. Maqola tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun amaliy va nazariy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Rang tasvir, natyurmort, kompozitsiya, rang uyg'unligi, yorug'-soya, estetik uyg'unlik, ijod, Chingiz Ahmarov, Raxim Ahmedov, akvarel texnikasi.*

Annotation: *This article explores one of the important types of fine art — the still life genre, its varieties, and its place in the creative works of Uzbek artists. In particular, the artistic research and contributions of famous painters Chingiz Akhmarov and Rakhim Akhmedov in the still life direction are analyzed. The article also explains in detail the three main stages of creating a still life — compositional structure, color solution, and final detailing. It serves as both a practical and theoretical guide for students studying in the field of fine arts.*

Keywords: *Painting, still life, composition, color harmony, light and shadow, aesthetic unity, creativity, Chingiz Akhmarov, Rakhim Akhmedov, watercolor technique.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается один из важных*

видов изобразительного искусства — жанр натюрморта, его разновидности и место в творчестве узбекских художников. В частности, анализируются творческие поиски и вклад известных художников Чингиза Ахмарова и Рахима Ахмедова в развитии натюрморта. Также подробно раскрываются три основные этапа работы над натюрмортом — композиционное построение, цветовое решение и финальная детализация. Статья служит практическим и теоретическим пособием для студентов, обучающихся в области изобразительного искусства.

Ключевые слова: Живопись, натюрморт, композиция, цветовая гармония, свет и тень, эстетическое единство, творчество, Чингиз Ахмаров, Рахим Ахмедов, акварельная техника.

KIRISH

Tasviriy san'at inson tafakkuri, didi va estetik dunyoqarashini shakllantiruvchi eng muhim san'at turlaridan biridir. Uning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan rang tasvir san'ati orqali rassom borliqni, tabiatni, inson his-tuyg'ularini ranglar, yorug'lik va shakllar vositasida ifodalaydi. Rang tasvir san'atining ko'plab janrlari mavjud bo'lib, ulardan natyurmort — o'zining tuzilishi, kompozitsiyasi va mazmuni bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Natyurmort (fransuzcha “nature morte” — “jim tabiat”) — bu harakatsiz predmetlar tasviridan iborat janr bo'lib, u orqali rassom hayotdagi oddiy buyumlarga yangi badiiy ma'no beradi. Meva, gullar, idishlar, kitoblar, milliy buyumlar yoki uy-ro'zg'or predmetlari orqali rang, yorug'lik va shakl uyg'unligi yaratiladi.

Mazkur maqolada rang tasvir va natyurmortning nazariy hamda amaliy jihatlarini, uning o'zbek san'atida tutgan o'rni, mashhur rassomlar Chingiz Axmarov va Raxim Ahmedov ijodidagi ifodasi tahlil qilinadi. Shuningdek, natyurmort ishlash bosqichlari — kompozitsion tuzilish, rangli yechim va yakuniy detallash jarayonlari bosqichma-bosqich yoritilib, tasviriy san'at ta'limi uchun metodik tavsiyalar keltirilgan.

Chingiz Axmarov(1912–1995) 1912-yilda Samarqandda tugʻilgan. Yoshligidan sanʼatga qiziqqan va keyinchalik Moskva rassomlik institutida tahsil olgan.U oʻz ijodida oʻzbek xalqining madaniyati, tarixiy obrazlari, milliy urf-odatlarini ranglar orqali chuqur ifoda etgan.Chingiz Ahmarov Oʻzbekiston tasviriy sanʼat maktabining eng nufuzli vakillaridan biri boʻlib, monumental rangtasvir va natyurmort janrida koʻplab asarlar yaratgan.Asarlari va natyurmortdagi oʻrni juda katta deb hisoblanadi.U natyurmortlarda milliy buyumlar, gilam, kashta, mevalar, idishlar, gullar kabi predmetlardan foydalanib, rang uygʻunligi va kompozitsion madaniyatni mukammal aks ettirgan. Mashhur asarlari orasida: “Sharqona natyurmort”, “Gilam yonidagi vaza”,“Oʻzbekcha dasturxon”,“Bahor gullari” va boshqa asarlari mashxur xisoblanadi.Ahmarov natyurmortda ranglarni poetik va hissiy holatda ifodalab, har bir predmetni hayotiy ruhda koʻrsatgan.U oʻz asarlarida milliy ruh, rang-baranglik, tinchlik va goʻzallik gʻoyasini ilgari surgan.

Raxim Ahmedov (1921–2008) 1921-yilda Toshkentda tugʻilgan.Toshkent badiiy bilim yurtini, keyinchalik Surikov nomidagi Moskva rassomlik institutini tamomlagan.1950-yillardan boshlab Oʻzbekiston sanʼatida realistik rang tasvir yoʻnalishining asoschilaridan biri boʻlib tanilgan.Oʻzbekiston xalq rassomi unvoniga sazovor boʻlgan.

Natyurmortdagi ijodi: Raxim Ahmedov oʻz natyurmortlarida yorugʻlik va rang uygʻunligini, materiallarning tuzilishini (meva poʻsti, mato, idish sathi) nihoyatda aniqlik bilan tasvirlagan.U meva natyurmortlari, gullar, oshxona buyumlari, hamda kitob va ish stoli kompozitsiyalari orqali tinchlik, sokinlik va estetik uygʻunlik holatini yaratgan. Mashhur asarlari: “Oq vaza va olma”, “Oʻzbekiston mevalari”,“Gullar natyurmorti”, “Yorugʻlik ostidagi idishlar”.U natyurmortda yorugʻlik oʻyini va rang haroratini mahorat bilan qoʻllagan.Har bir asarida hayotiylik, bosiqlik va badiiy uygʻunlik seziladi. Ahmedov uchun natyurmort — bu rang, tuygʻu va muvozanat sanʼati edi.

Natyurmort ishlash bosqichlari

1-bosqich

Natyurmort ishlashni boshlashdan oldin avval, natyurmortimizga mos

taxtalik rassomlar ishlatadigan stendini tanlab olamiz. So'ng rang tasvir uchun mahsus mo'ljatlanagan qog'ozni olamiz, qog'ozni suvlab stendimizga stepler yordamida chetlaridan 2-3 sm oshirib orqasiga buklab qog'ozni tortib olamiz. So'ng uni tik holatda qo'yib qurutib olamiz, isitkichlar oldiga qo'yish taqiqlanadi bu hayotimiz uchun havfli. Sochimizni qurutadigan fenda qurutsak ham bo'ladi bu yo'llari havfsizroq. Qog'ozimiz qurugandan keyin tarrang tortiladi va chizishimiz uchun tayyor holatga keladi. Natyurmort chizishimizda birinchi bo'lib qog'ozimizni markazidan teng qilib ikkiga bo'lib olamiz, so'ng natyurmortni qozozimizga to'ri joylashtirib olamiz, bu juda muhim jarayon hisoblanadi har bir buyumning nisbatini olib bir biriga solishtirib joylashtiramiz. Misol natyurmortimiz uy ro'zg'or buyumlar bilan to'ldirilgan bo'lsa, olmani nisbati tovoqdan katta bo'lib ketmasligi kerak! Avvalo ufq chizig'ini topib olamiz biz o'tirga holatda chizayotgan bo'lsak, qalamni qo'limizga ushlab, qo'limizi boricha natyurmort tarafga cho'zamiz, kozinizni qarshishiga yotiq qalamni qo'yamiz, va manashu qalam bilan teng turgan chiziq "UFQ" chizig'i bo'ladi. Bu ufq chizig'i bizga yordami katta. Agar otirib chizayotgan bo'lsak ufq chizig'i pasda bo'ladi, buyumlarni tepa qalinligi bizga ko'rinmaydi, agar turib natyurmort ishlayotgan bolsak ufq chizig'i tepada bo'ladi va buyumlarning tepa qismi ya'ni qalinligi bizga ko'rinadi. Rasmni HB qalamda chizish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar shumshoq qalamlarda ishlaydigan bo'lsak hato chizib qo'yganimizda izlari qolib ketadi. Qalamni qattiq bosmasdan ishlaymiz. Natyurmortda eng ko'zni tortib turgan narsa nimaligi aniqlaymiz. Va markazdagi eng oldidagi narsani oldiroqqa joylashtiramiz. Buyumlarni yordamchi chiziqlar yordamida chiqaramiz, yordamchi chiziqlar qancha ko'p o'tgassak o'zimizga shuncha oson bo'ladi. Detallarni chiqarishimizga yordam beradi. So'ng yorug'lik qayerda yushyapti? chap yokida o'ng tomondan shunga qarab soyalarni aniqlab olamiz. Buyumlarni chiqarib olganimizdan so'ng uy ro'zg'or buyumlari nimani ustida turibti? Degan savolni o'zimizga beramiz. Stolni ustida turganini bildirishimiz kerak! Havoda muallaq turganday bo'lib qolmasligi kerak. Stol ustida olma, piyola turgan bolsa, gishtni ustida tovoq turgan bo'lishi mumkin, anashu tovoqni gisht ustida turganini bildirishimiz kerak! Hamma nisbatlarni olib

olganimizdan so'ng orqa fondagi materialni buklanishlari qayerdan kelib qayerda to'xtayapti shularni sinchiklab kuzatib, ularni belgilab chiqamiz. Natyurmort rang berish uchun tayyor holga keltirish uchun yordamchi chiziqlarni ochirib asosiy chiziqlarni ham ko'z ilg'aydigan darajada o'chirib chiqamiz, chunki rang berganimizdan keyin u chiziqlar qo'pol bo'lib rangni tagida qolib ketishligi mumkin. Agar rang bergandan keyin o'chiramiz desak, ochirgich rangni ham ochirib, u joyni hunuk qilib qo'yishligi mumkin. Shu joyda o'chirg'ich haqida gaplashib ketsak, uni tanlayotib yumshoqligiga qarab olishimiz kerak, agar sifatsiz o'chirg'ich olib qo'ysak qalam izlarini shuvab yuborishi mumkin. Bu juda yomon holatni keltirib chiqaradi, u izlar keyin qolib ketadi! Agar qattiq va sifatsiz o'chirg'ich olsak, qalam izlarini o'chirganda listni shilib yuboradi va rang berganimizda u joy ajralib qoladi. Rang tasvirda natyurmort ishlash texnikasi asosiy 3 turga bo'linadi. 1 bosqich hozirgi tepada ko'rib chiqqan ma'lumotlarimiz, 2 bosqich yengil rang berish. Asosiy buyumlarni ajratish birinchi plandagi narsalarni ajratish kiradi. 3 bosqichda esa, har bir buyumning o'ziga hosligini detallarini sinchiklab chiqaramiz, va oldi plandi aniq va tiniq ranglar bilan ishlab ishni yakunlaymiz.

Endi bizga kerak bo'ladigan narsalar to'plami: akvarel, shotkalar turli hil, suv uchun idish, palitra uchun qog'oz yoki mahsus palitra kerak bo'ladi.

2-bosqich

Avval akvarelimizga shotkada suv olib har bir rangga suvni tomchilatib chiqamiz. Bu ranglar erib bo'yash uchun tayyor holga kelib turadi. Natyurmort chizgan qog'ozimizga katta shotkada yengil suv yugurtirib olamiz, bu rang qo'yayotganimizda qog'oz rangni tezda shimib olmasligi, ranglar bir-biri bilan qoshilib sof rang chiqishligi uchun. Natyurmortga yegil rang beriladi. Soyalarni aniqlab olgan joylarimizga to'qroq va sovuq ranglar bilan ishlaymiz. Yorug'lik qaysi tomondan kelayotganini aniqlab olamiz. Buyumlarning o'rtasida sovuq va iliq ranglar muvozanatini ushlab turamiz. Rang berayotganimizda orqa plandan kelganimiz yaxshi, chunki birinchi oldi plandi ishlab olsak keyin orqa plandi rangini beraman deganimizda, akvarel asosan suv bilan ishlanganligi uchun, birinchi

plandagi buyumning ranglari, sochilib ketishligi mumkin. Markazdagi asosiy buyumni tanlab olamiz, uni orqa buyumlarga qaraganda ko'proq ishlashimiz kerak. Har bir buyumni o'z asliga o'xshatib ishlaymiz. Matoni mayinroq, taxta buyumlarni taxtadan yasalgan ekanligini bildirib, sopol buyumlarning qattiqligini sopoldan tayyorlangan ekanligini xis qilib, natyurmortda ham shu buyumlarni nima ekanligini bildirib ishlashligimiz kerak.

3-bosqich

Ishni tugallash va bitirish, asosiy markazdagi buyumni oldiga chiqarish, asosiy fokusimizni yorug'-soya, refleks, asosiy soya va shunga oxshash narsalarga qaratishimiz kerak. Predmetning aniq shakli, hajmi, materiali mukammal ishlanadi. Ranglar orasidagi o'tishlar yumshatiladi, soyolar tabiiy holatga keltiriladi. Reflekslar yorug'lik akslari va yorug'lik nuqtalari aniqlashtiriladi. Ijodkor bosh g'oyani kuchaytiradi. Kuchaytirish uchun ortiqcha detallarni olib tashlaydi, diqqat markazini belgilaydi. Bu bosqichda natyurmort mukammal badiiy asarga aylanadi. Unda rassomning rang sezgirligi, tasviriy fikrlash darajasi va ijodiy individualligi yaqqol namoyon bo'ladi. Rang tasvirda natyurmort ishlash 3 bosqichi-kompozitsiya jihatdan tuzish, rangli yechim topish, va yakuniy detallash bir-birini to'ldiruvchi bosqichlardan tashkil topgan.

NATIJA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, natyurmort tasvirlash jarayonida rassomning kuzatuvchanligi, rang sezgirligi va kompozitsion fikrlashi katta ahamiyat kasb etadi. Natyurmort ishlash bosqichlarida rang tanlovi, yorug'lik manbai, va buyumlarning nisbatlari to'g'ri belgilanishi badiiy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Chingiz Ahmarov va Raxim Ahmedov ijodida natyurmort faqat predmetlar yig'indisi emas, balki milliylik, ruhiy holat va go'zallik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Rang tasvirda natyurmort janrining o'zni nihoyatda muhim. U rassomdan nafaqat texnik mahoratni, balki ranglar orqali fikrlash va badiiy his qilish

qobiliyatini ham talab etadi. O'zbekiston rassomlari — Chingiz Ahmarov va Raxim Ahmedovlar ijodi bu yo'nalishda namunali maktab yaratgan bo'lib, ularning asarlari bugungi yosh ijodkorlar uchun ilhom manbaidir. Natyurmortni to'g'ri kompozitsiyada, bosqichma-bosqich, rang muvozanatini saqlagan holda ishlash — bu rassomlik san'atining asosiy tamoyillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, U. "Rang tasvir asoslari." – Toshkent: San'at nashriyoti, 2018.
2. Rahimov, B. "Natyurmort kompozitsiyasi va uni o'qitish metodikasi." – Toshkent, 2019.
3. To'xtayev, A. "Tasviriy san'at asoslari." – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. Xudoyberdiyeva, M. "O'zbekiston rassomlari ijodi." – Samarqand: Registon nashriyoti, 2020.
5. G'ulomov, N. "Rang va shakl uyg'unligi." – Toshkent, 2017.
6. Ashurov, Sh. "Rassomlikda yorug'lik va soya tahlili." – Toshkent, 2021.
7. Raxim Ahmedov ijodiy katalogi. – O'zbekiston Badiiy Akademiyasi nashri, 2008.
8. Chingiz Ahmarov. "Ijod va ranglar sehri." – Toshkent: San'at nashriyoti, 1992.